



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



**10–11-SINF O'QUVCHILARIGA SUN'iy INTELLEKT ORQALI
MATN YOZISHNI O'RGATISH**

Ro'ziyeva Aziza Bobirovna

Alisher Navoiy nomidagi

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
azizaruzieva200205@gmail.com*

Abdusattorova Xadicha Xusanboy qizi

Alisher Navoiy nomidagi

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi
abdusattorovaxadicha3@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lif jarayonida, ayniqsa, yozma nutqni rivojlantirishdagi roli tahlil etiladi. Sun'iy intellekt vositalari yuqori sinf o'quvchilarining yozish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotlarda SI vositalarining o'quvchilarga matn yaratish, uni tahrirlash va mantiqiy izchillikni saqlashda qanday yordam berishi ko'rsatib o'tilgan. AI vositalari orqali yozuvning aniqligi, grammatick to'g'riligi va ijodiy ifodaliligi oshishi ta'kidlanadi. QuillBot va Chat GPT kabi texnologiyalarining samaradorligi sinov-tajriba ishlari orqali tekshirilgan bo'lib, natijalarga ko'ra, ushbu vositalar o'quvchilarning grammatick savodxonligini oshirish, ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt grammatickani, punktuatsiyani, uslubni, lug'atni va umumiyl tuzilishni yaxshilashda yordam berishi mumkinligi borasida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, yozma nutq, matn tahlili, QuillBot, Chat GPT, monoton ta'lif.

Аннотация. В данной статье анализируется роль технологии искусственного интеллекта (ИИ) в образовательном процессе, особенно в развитии письменной речи. Представлена важность ИИ в виде помощи ученикам старших классов. Программы показывают, как ИИ может помочь ученикам в ведении текста, его редактировании и логическом управлении. Подчеркиваются точность, грамматическая правильность и творческая выразительность письма посредством ИИ. Была протестирована контрольно-экспериментальная работа технологий письма QuillB и Chat GPT, проверена контрольно-экспериментальная работа, а также программы оказали влияние на развитие творческого и логического мышления, а также на способность ИИ определять грамотность учеников в учебной программе. Также упоминается, что искусственный интеллект может помочь улучшить грамматику, пунктуацию, стиль, словарный запас и общую структуру.

Ключевые слова: искусственный интеллект, письменная речь, анализ текста, QuillBot, Chat GPT, монотонное обучение.

Abstract: This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) technology in the educational process, especially in the development of written speech. The importance of AI in the form of assistance to high school students is presented. The programs show how AI can help students in maintaining text, editing it, and logical management. The accuracy, grammatical correctness, and creative expressiveness of writing through AI are emphasized. The test-and-experimental work of the QuillB and Chat GPT writing technologies was tested, and the test-and-experimental work was checked, and the programs provided an impact on the development of creative and logical thinking, as well as on the ability of AI to determine



the literacy of students in the curriculum. It is also mentioned that artificial intelligence can help improve grammar, punctuation, style, vocabulary, and overall structure.

Keywords: *artificial intelligence, written speech, text analysis, QuillBot, Chat GPT, monotonous learning.*

Axborot va aloqa evolyutsiyasi texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt so'nggi yillarda ta'lif muhitini tubdan o'zgartirdi. Ushbu yutuqlar o'quvchilarning o'qish, yozish shunga o'xhash o'quv faoliyatiga ta'sir qiladi. Dunyo bo'yicha ta'limda sun'iy intellektni tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlarda sinf sharoitida sun'iy intellektdan foydalanishning turli shakllari o'rganilgan va bu tadqiqotlar asosan sun'iy intellektning o'quvchilar o'zlashtirishi borasida taqdim etadigan afzalliklariga urg'u beradi.

N.Göksel va A.Bozkurt ta'limda sun'iy intellekt qo'llanilishi bo'yicha izlanishlarni tahlil qilar ekan, tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan uchta jihatni aniqlashgan: adaptiv ta'lim, ekspert tizimlari va ITT (intellektual tutorlik tizimlari);

kelajakda ta'lim jarayonlarida sun'iy intellektning roli [1].

Ta'lim sohasida SI vositalari tabiiy tilni qayta ishlash va mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda matnni tahlil qilish hamda yozuvga moslashtirilgan fikr-mulohazalar taqdim etadi. Sun'iy intellekt o'quvchilarga grammatikani, punktuatsiyani, uslubni, lug'atni va umumiy tuzilishni yaxshilashda yordam berishi mumkin. Chunki bu vositalar xatolarni aniqlaydi va yaxshilanish uchun tavsiyalar beradi. Shu bilan birgalikda, sun'iy intellekt yordamida tilni o'rganish faqat grammatika va imlo xatolarini aniqlash bilan cheklanib qolmaydi.

Qayta rivojlangan SI vositalari yozuv uslubi, ohang va aniqlik bo'yicha fikrlar taqdim etadi [2].

Yozish – bu o'quvchilarning turli mavzularda hikoyalash, muhokamalar qilish, tasvir asosida matn yaratish kabi ko'plab vazifalar yig'indisidir. Shunga qaramay, nutqiy ko'nikmalar orasida yozma nutqni rivojlantirish eng qiyin qobiliyatlardan biri sifatida qaraladi. Shu qiyinchiliklarni yuzaga keltiradigan omillar:

- g'oyalarning yetishmasligi;
- fikrni tartiblash va boshqarish;
- fikr almashishning cheklanganligi;
- lug'at boyligining kamligi;
- o'qituvchilarning ko'proq nazariyaga asoslanishi (monoton o'qitish uslubi);

Bunga yechim sifatida ingliz olimlari ikkita taklifni ilgari surishgan. Bularning birinchisi ijodkorlikni turli xil usullar bilan rivojlantirish, ikkinchisi sun'iy intellekt bilan ta'limni integratsiyalash.

Bugungi kunga kelib matn yozishga qaratilgan QuillBot, Chat GPT, Grammarly, Deep L, Essay Writer, Wordtune, Jasper, Sudowrite, Rytr, Paraphraser.io kabi SI lar mavjud.



QuillBot onlayn platformasi matnda jumlalarni ifodalash, grammatikani tekshirish, iqtibos yaratish, va umumlashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Aniqlash va tuzatish orqali o'quvchilarning grammatik savodxonligi rivojlanadi [3].

Ingliz olimlari QuillBot orqali 11-sinf o'quvchilarida matn yozish ko'nikmasini rivojlantirish uchun sinov-tajriba ishlarini amalga oshirishgan. Ular bu ishni 3 bosqichda olib borgan:

1-bosqichda sinf atmosferasi, dars muhiti, o'qitish va o'qish dinamikasi kabilar o'rganib chiqilgan. Dastlab QuillBotning vazifasi va uning yaratilishi haqida ma'lumotlar berildi.

2-bosqichda o'quvchilarga QuillBotni taqdim etib, uni ta'lim bilan integratsiyaladilar. Ba'zi o'quvchilar bu jarayonga mas'ulyatsizlik bilan yondashgan bo'lsa, ba'zilari qiziqish bildirgan.


3-bosqichda esa o'quvchilarning diqqati jamlangan va faolligi oshgan. Bu jarayonda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan munosabati sezilarli darajada yaxshilangan. Ular bir-biriga yozgan matnlarini Quillbot orqali tahrirlashni, fikrlarni umumlashtirish va grammatik bog'lanishlarni o'rgatishni boshlashdi.

Dastlabki sinov natijalari 53,55 foiz, QuillBotdan foydalangach 78,90 foiz natijani tashkil etdi.

Bugungi kunda O'zbekistonda sun'iy intellektlardan biri bo'lgan Chat GPT ommalashib bormoqda. Chat GPT – bu OpenAI tomonida ishlab chiqilgan, sun'iy intellektga asoslangan suhbatbot bo'lib, tabiiy tilni tushunish, inson bilan muloqot qilish qobiliyati, matnlarni tushunish va tahlil qilish qobiliyatiga ega.

10–11-sinf o'quvchilariga matn yozishni Chat GPT orqali o'rgatish bir qator afzalliklarga ega:

- tez va samarali yozish;
- tuzilish va mantiqiy izchillik (kirish, asosiy qism va xulosalarga ajratib beradi);
- obyektiv va neytral yondashuv (fakt va argumentlarga asoslangan holda);
- til va grammatik xatolarsiz yozish;
- tahrirlash va qayta ishlash imkoniyati;
- innovatsion va kreativ yondashuv;
- til boyligi va sinonimlar bilan ishlash imkoniyati.



10-11-sinf o'quvchilari orasida matn yozish bo'yicha sinov-tajriba ishlari amalga oshirildi. Ular dastlab ma'lum bir mavzu va tasvir orqali matn yaratib, Chat GPT orqali tahrirlab, qayta ishlashdi. Bu jarayon ularga bir qadar yengillik va kreativ fikrlash imkonini yaratdi.

10-sinf o'quvchilarga quyidagi rasm orqali hikoya matni yaratish topshirig'i berildi.

O'quvchi tomonidan yozilgan matn:

Bir kuni Anvar o'rmonda sayir qilib



yurganda yerda yotgan qushni ko'rib qoldi. Qush yerda yotardi. U qushni ko'tarib uyiga olib ketti. Keyin uyiga kirib uni qafasga soldi, unga ovqat berdi uni boqdi. Keyin qush tuzaldi. Bir kuni Anvar derazadan ko'cha tomosha qilib turganida daraxtdagi qushlarni ko'rdi, ular daraxtdan daraxtga uchib yurardi. Anvarning ularga havasi keldi va o'zini qushini ham qafasdan chiqardi. Qush mazza qilib osmonda uchdi.

(10-sinf o'quvchisi M. Baxtjan)

SI dan foydalanib tahrirlangan va qayta ishlangan matn:

Mehribon Anvar

Bir kuni Anvar o'rmonda sayr qilib yurganida, yerda yotgan qushni ko'rib qoldi. Qush juda zaif va holdan toygan edi. Anvar unga rahmi kelib, ehtiyyotkorlik bilan qo'liga oldi va uyiga olib ketdi.

Uyga kelgach, Anvar qushni qafasga joylashtirdi, unga don-dun berib, suv qo'ydi va diqqat bilan parvarish qila boshladи. Oradan kunlar o'tib, qush sog'ayib, kuchga kirdi.

Bir kuni Anvar derazadan tashqariga qarab turarkan, daraxtdan daraxtga erkin uchayotgan qushlarni ko'rdi. Ularning ozodligi unga yoqdi va qafasdagи qushini esladi. Anvar qushning ham erkin bo'lishini istab, qafas eshigini ochdi.

Qush qanotlarini yozib, osmonga ko'tarildi. U zavq bilan parvoz qilib, boshqa qushlarga qo'shildi. Anvar xursand bo'lib, uning uzoqlarga uchib ketishini kuzatdi va o'zining to'g'ri ish qilganini his qildi.

11-sinf o'quvchilariga "Bitiruvchi sinf o'quvchilari o'zlarining qiziqishlarini hisobga olgan kasb tanlashi kerakmi yoki ota-onasining qistovi bilanmi?" degan mavzuda muhokama matni yozish topshirig'i berildi

O'quvchi tomonidan yozilgan matn

Men harbiy bo'lishni xohlayman lekn uymdagilar bunga qarshi chiqadi. Uyda bitta o'g'ilman onam shuning uchun ketmaysan deb ko'p gapiradi. Shuning uchun majburligimdan temiryo'lchi kasbini tanladim. Bunga uncha qizishim yo'q. Harbiy qurollar bilan ishlashni tog'larda yurishni kuchli bo'lishni xohlayman. Bu sohani yuragim tanlayveradi. Hozir uydagilarm aytaganiday temiryo'lchi bo'lishga tayyorlanayapman, lekn ota-ona farzandini qizishini hisobga olishi kerak deb o'ylayman bo'lmasa bolalar men kabi yomon ahvolga tushib qoladi. :m harbiylikni o'ylayapman, sinfdoshlarimning ko'pi o'zi xohlagan kasb egasi bo'lmoqchi ularga juda havasim keladi. Mendaylar ham ko'p ular ham ota-

SI dan foydalanib tahrirlangan va qayta ishlangan matn

Bitiruvchi sinf o'quvchilari o'z qiziqishlari asosida kasb tanlashlari kerakmi yoki ota-onalarining fikriga qulq tutishlari lozimmi? Bu savol har :m muhokama mavzusi bo'lib kelgan.

Shaxsan men harbiy bo'lishni orzu qilaman. Bu soha meni o'ziga tortadi, harbiy qurollar bilan ishlash, tog'larda yurish, jismonan kuchli bo'lishni xohlayman. Biroq oilam bunga qarshi. Uyda yagona o'g'il bo'lganim sababli, onam meni harbiy xizmatga qo'yib yuborishni istamaydi.

Shu sababli majburiy ravishda temiryo'lchi kasbini tanladim. Lekin bu soha menga unchalik qiziq emas. Haqiqatan ham ota-onalar farzandining kelajagini o'ylab, unga yo'l ko'rsatishlari kerak. Biroq shu bilan birga, bolalarning qiziqish va istaklari ham



И «ИСТОРИИ ВЧЕРАШНЕГО ДНЯ» Л.Н. ТОЛСТОГО	
<i>To'raqulova Nilufar Amirqulovna. DEGREES OF COMPARISON OF ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK</i>	498
<i>Türkan Mahmudzadə. MEHMET AKIF ƏRSOY MILLİ KIMLIK MƏSƏLƏSİ</i>	501
<i>Xamidullayeva Fotima Adxam qizi. XORIJIY TILNI O'RGANISHDA GAPIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</i>	506
<i>Xoziyeva Iroda Zokirjon qizi. DAVLAT TILINI O'QITISHNING ASOSIY TAMOYILLARI (TOJIK TILLI MAKTABLAR MISOLIDA)</i>	513
<i>Mohinur Akhmedova Ziyodulla Kızı. ORTAK TÜRK EDEBIYATI MI, MILLÎ EDEBIYAT MI? PARADIGMALAR ARASI DENGE ÜZERINE KARŞILAŞTIRMALI BİR İNCELEME: TÜRKİYE, AZERBAYCAN VE ÖZBEKİSTAN ÖRNEĞİ</i>	519
<i>Xatirə Bayramova. QARABAĞIN FÜZULİ RAYONUNUN HIDRONİMLƏRİNİN LEKSİK-SEMANTİK XÜSUSIYYƏTLƏRI</i>	527
<i>Davletova Shalola Bahodir qizi. XORXE LUIS BORXES ASARLARIDA EKZİSENSİALİZM</i>	536
<i>Ismailova Gulnoza Odiljon qizi. A CATEGORIZED AND STATISTICAL EXAMINATION OF RELIGIOUS TERMINOLOGY IN KUTADGU BILIG</i>	539
<i>Ro'ziyeva Aziza Bobirovna, Abdusattorova Xadicha Xusanboy qizi. 10-11-SINF O'QUVCHILARIGA SUN'İY INTELLEKT ORQALI MATN YOZISHNI O'RGATISH</i>	548
<i>Валида Шихалиева Надир кызы. НОВЫЕ ПОЭТИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ИРАКСКО-ТУРКМЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ</i>	553
<i>Omonova Qunduz Alisher qizi. HOZIRGI TURKIY TILLARDA UCHRAYDIGAN VARIATIVLIK MUAMMOLARI VA TADQIQOT YONALISHLARI</i>	559
<i>Rahmatillayeva Nozima Nigmatilla qizi. IKKKINCHI TILNI O'QITISHDA IJTIMOIY VA LINGVISTIK XILMA-XILLIKNI QOLLAB - QUVVATLOVCHI (EQUITABLE) YONDASHUV</i>	562
VI SHU'BA. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI	
<i>Tursunoy Yusupova Axmedovna. O'QUVCHILAR NUTQIY KOMPETYENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY OMILLARNING O'RNI</i>	576
<i>Shodmonova Munira Burxonovna. TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK-DIAGNOSTIK METODNING O'RNI</i>	579
<i>Kuldasheva Sanobar Xayotovna. RAQAMLI TEKNOKRATLASHUV SHAROITIDA QO'SHMA GAPLARNI O'QITISH USULLARI</i>	587
<i>Iskandarova Gulbahor Turabayevna. XORIJLIKLARNING O'ZBEK TILINI O'RGANISHIDA SO'Z MA'NOLARINING O'ZLASHTIRISHI</i>	592

